"TASDIQLAYMAN"

"O'zmilliybank" AJ
"Bektemir" Bank xizmatlari
markazi boshqaruvchisi v.b.
Xalyigitov.A.X

"O'zmilliybank" AJ Bektemir Bank xizmatlari markazida Bank mijozlari va tadbirkorlar ishtirokida uyushtirilgan uchrashuv bayoni.

MAJLIS BAYONI

2026-yil 6-mart **Toshkent shahri**

Yig'ilish raisi:	Xalyigitov.A.X - "O'zmilliybank" AJ "Bektemir" Bank xizmatlari markazi boshqaruvchisi v.b.
Majlis ishtirokchilari:	F.A.Yunusov – "O'zmilliybank" AJ "Bektemir" BXM Biznes mijozlari bilan ishlash guruxi boshlig`i - boshqaruvchi o`rinbosari
	F.X.Maxmudov-"O'zmilliybank" AJ "Bektemir" BXM Mahallabay ishlash guruhi loyiha menedjeri
Taklif etilganlar:	"O'zmilliybank" AJ "Bektemir" Bank xizmatlari markazi yuridik mijozlari va tumandagi tadbirkorlar (ro'yhat bo'yicha)

KUN TARTIBI

Yig'ilishni "O'zmilliybank" AJ "Bektemir" Bank xizmatlari markazi boshqaruvchisi vazifasini bajaruvchi Xalyigitov.A.X ochib, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan oddiy aholining tadbirkorlik bilan shug'ullanishi uchun barcha zaruriy shart-sharoitlar yaratib berilayotganligi, bunda joylardagi mavjud ishsizlarni ish bilan ta'minlash va kambag'al oilalarning oila daromadini ko'tarish orqali kambag'allik ro'yxatidan chiqarish eng oliy maqsad ekanligi, bu borada tuman xokimliklari hamda joylardagi tijorat banklari tomonidan ularni qo'llab quvvatlash borasida bir qator tizimli chora tadbirlar yo'lga qo'yilganligi yuzasidan tegishli tushuntirishlarni berib o'tdi.

Shundan so'ng, "O'zmilliybank" AJ "Bektemir" Bank xizmatlari markazi boshqaruvchisi vazifasini bajaruvchi Xalyigitov.A.X so'zga chiqib, bugungi yig'ilishga bank filialining joylardagi bank xizmatlari markazlarida xizmat ko'rsatilayotgan ko'zga ko'ringan tadbirkor va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar taklif etilganligi, bugungi yig'ilishdan maqsad joylarda yangi ish o'rinlarini yaratish orqali tumandagi mavjud ishsizlarni ish bilan ta'minlash, bunda tadbirkor va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan mazkur masalani yo'lga qo'yilishida bugungi kundagi duch kelinayotgan muammo va to'siqlarni o'zaro xamkorlikda bartaraf etish ko'zda tutilayotganligini ma'lum qildi.

Shuningdek, kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish istagida bo'lgan yoshlarni har taraflama qo'llab-quvvatlash maqsadida bank bo'limi tomonidan berilayotgan kreditlar, tadbirkorlikni yolga qo'yish borasida loyihalar mavjud bo'lgan taqdirda "O'zmilliybank" AJ "Bektemir" Bank xizmatlari markazi tomonidan tezkor fursatlarda ko'rib chiqilishini gapirib o'tdi.

Yig'ilishda tadbirkorlik subektlarining bank muassasalari bilan o'zaro munosabatlarida ochiqlik, shaffoflik va qonuniylikni ta'minlash, korrupsiyaviy holatlarning oldini olish hamda moliyaviy xizmatlar ko'rsatish jarayonida asossiz to'siqlarga yo'l qo'ymaslik masalalari muhokama qilindi.

Ta'kidlandiki, kredit ajratish, hisob-raqamlar ochish, to'lovlarni amalga oshirish, kafolat va boshqa bank xizmatlarini ko'rsatish jarayonlarida qonunchilik talablariga qat'iy rioya qilinishi, ortiqcha hujjat talab qilish yoki noqonuniy shartlar qo'yilishiga yo'l qo'yilmasligi shart.

Shu bilan birga, tadbirkorlik sub'ektlari va bank xodimlari tomonidan manfaatlar to'qnashuviga, noqonuniy moddiy yoki nomoddiy manfaatdorlik holatlariga yo'l qo'ymaslik zarurligi alohida qayd etildi.

Korrupsiyaviy holatlar yoki noqonuniy talablar aniqlangan taqdirda, belgilangan tartibda vakolatli organlarga murojaat qilish hamda murojaatlarni ko'rib chiqishning shaffof mexanizmlaridan foydalanish tartibi tushuntirildi.

Sayyor qabulda 12 ta tadbirkor, ya'ni:
YATT MUYDINOVA FOTIMA SHUXRAT QIZI, YATT TURAPOV ILXAM ISKANDAR OGLI, YATT USMONOV DOSTON FARHOD OGLI, YATT SOATOVA MUKADDAS YUSUFOVNA, Асимджанова Мавлюда Нишановна YATT, YATT SHAKIROV BAXRAM IIGITALIYEVICH, YATT MUSTAFAYEV SUHROB ILXOM O'G'LI, YATT TO'LQINOV ZABILILLO QODIRJON O'G'LI, SHOAZIZOV SHAXOBIDDIN MAXMUD O'G'LI YATT, ELICOM MCHJ, YATT VETROVA YELENA ANATOLEVNA, RUSTAMOV DOSTON XURSANDALI O'G'LI YATT ishtirok etib, ular tomonidan turli hil murojaatlar va takliflar bildirildi.

Jumladan: ELICOM MCHJ, RASHIDOV IKROM ABDURAIMOVICH, RUSTAMOV DOSTON XURSANDALI O'G'LI YATT raxbarlari tomonidan o'z tadbirkorlik faoliyatlarini boshlash uchun kredit olishga hamda terminal olishga ehtiyoji borligini bildirdi.

Kun tartibidagi masalalar bo'yicha bildirilgan fikr, taklif va mulohazalardan kelib chiqqan holda, yig'ilish

QAROR QILADI:

1. Kun tartibidagi masalalar yuzasidan mavjud ma'lumotlar va ma'ruzada ko'rib chiqilgan masalalar ma'lumot uchun qabul qilinsin;
2. Tadbirkorlar tomonidan taqdim etilgan muammolar bo'yicha ularni zudlik bilan ko'rib chiqish, bunda Toshkent shahar Bektemir tumaniga tegishli va vakolat doirasida mavjud muammolarni ko'rib chiqish ishlarini amalga oshirish;
4. Mazkur uchrashuv bayoni ijrosini nazorat qilishni Bektemir" Bank xizmatlari markazi boshlig'i Xalyigitov.A.X zimmasiga yuklansin.

"O'zmilliybank" AJ "Bektemir"
BXM Biznes mijozlari bilan ishlash guruxi
boshlig`i - boshqaruvchi o`rinbosari **F.A.Yunusov**

Kotib **F.X.Maxmudov**